Akademiklarga yangi namunadagi guvohnoma berildi

Davlatimiz Rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 20-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida akademiklar va yurtimizning yetakchi olimlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv bayonida berilgan topshiriqqa asosan 2018-yil 14-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Fanlar akademiyasi akademiklariga yangi namunadagi guvohnomalar tantanali ravishda topshirildi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Nigmatovich Aripov ishtirok etdi.

Eslatib o‘tamiz, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 91 nafar akademiklari jamiyatimizning turli jabhalarida o‘z faoliyatlarini olib bormoqda. Akademiklarning 32 nafari 2017-yilda tanlangan.